
The Character of Sevinch and the Artistic Interpretation of Women's Destiny in the Novel "Ota"

Atadjanova Yulduzxon Dilshadovna
yulduzxon.atadjanova@gmail.com
Chief Specialist of the Department of
Spirituality and Enlightenment,
Al-Khwarizmi University

- Annotation** *This article examines the character of Sevinch and her tragic fate in Ulugbek Hamdam's novel "Ota" ("Father") from the perspective of the artistic representation of women's destiny within the family, society, and moral value system. Sevinch's life is analyzed not only as an individual tragedy, but also in the context of the complex conflict between personal choice, family responsibility, paternal authority, and social judgment. Her physical and psychological trauma in childhood, the development of her relationship with her father Po'lat, and the tragic circumstances that determine her later life are interpreted as important factors shaping the evolution of her character. Particular attention is paid to the artistic details and symbolic motifs, including fire, dreams, birds, and the image of the home, which contribute to revealing the heroine's psychological state and the ideological structure of the novel. The article also explores the social evaluation of a woman's mistake, the relativity of moral standards, and the limits of judgment imposed on an individual for a particular action. The study concludes that Sevinch is not merely a tragic female character, but a complex literary figure whose individual fate acquires broader social, ethical, and philosophical significance. Ultimately, Sevinch is presented as a complex figure whose individual tragedy develops into a social and philosophical generalization.*
- Keywords** *Ulugbek Hamdam, "Ota" novel, Sevinch character, women's destiny, literary character, psychologism, social and moral values, conflict*

"Ota" romanida Sevinch obrazi va ayol taqdirining badiiy talqini

Atadjanova Yulduzxon Dilshadovna
yulduzxon.atadjanova@gmail.com
Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi bosh mutaxassisi,
Al-Xorazmiy universiteti

- Annotatsiya** *Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi Sevinch obrazi hamda uning fojiaiy taqdiri orqali ayol shaxsining oila, jamiyat va axloqiy qadriyatlar tizimidagi o'rni badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi. Sevinchning hayot yo'li uning individual qismati doirasidagina emas, balki shaxsiy tanlov, oilaviy mas'uliyat, otalik hokimiyati va ijtimoiy hukm o'rtasidagi murakkab ziddiyatlar kontekstida tadqiq etiladi. Qahramonning bolalikdagi ruhiy va jismoniy jarohati, otasi Po'lat bilan munosabatlarining shakllanishi hamda keyinchalik yuzaga kelgan fojiaiy vaziyatlar uning xarakter evolyutsiyasini belgilovchi omillar sifatida talqin qilinadi. Romanda yong'in, tush, qush va uy kabi badiiy detallar hamda ramziy obrazlarning Sevinch ruhiyatini ochishdagi funksional xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ayol xatosining ijtimoiy muhit tomonidan baholanishi, axloqiy mezonlarning nisbiyligi va inson qilmishiga beriladigan hukmning chegaralari masalasi tahlil qilinadi. Natijada Sevinch obrazi individual fojiadan ijtimoiy-falsafiy umumlashmaga ko'tarilgan*

murakkab badiiy obraz sifatida baholanadi. Shu jihatdan qahramon taqdirida shaxsiy iztirob bilan jamiyatning ma'naviy talablari o'rtasidagi keskinlik namoyon bo'ladi va roman ayol taqdirining murakkabligini chuqur falsafiy mushohada qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar *Ulug'bek Hamdam, "Ota" romani, Sevinch obrazi, ayol taqdiri, badiiy obraz, psixologizm, ijtimoiy-axloqiy mezonlar, konflikt*

Образ Севинч и художественная интерпретация судьбы женщины в романе "Ота"

Атаджанова Юлдузхон Дилшадовна

yulduzxon.atadjanova@gmail.com

Главный специалист отдела духовности и просветительства,
Ал-Хорезмийский университет

Аннотация *В статье исследуется образ Севинч и её трагическая судьба в романе Улугбека Хамдама «Ота» («Отец») с точки зрения художественной интерпретации женской судьбы в системе семейных, общественных и нравственных ценностей. Жизненный путь Севинч рассматривается не только как индивидуальная трагедия, но и в контексте сложного противостояния между личным выбором, семейной ответственностью, отцовской властью и общественным осуждением. Детские физические и психологические травмы героини, формирование её отношений с отцом Пулатом, а также трагические обстоятельства последующей жизни интерпретируются как факторы, определяющие эволюцию характера Севинч. Особое внимание уделяется художественным деталям и символическим мотивам — огню, сну, птицам и образу дома, — посредством которых раскрывается внутренний мир героини и идейно-эстетическое содержание произведения. Анализируется также проблема общественной оценки женской ошибки, относительности нравственных критериев и границ человеческого осуждения. В результате Севинч рассматривается не просто как трагический женский персонаж, а как сложный художественный образ, индивидуальная судьба которого приобретает социально-этическое и философское значение. Тем самым судьба героини позволяет выявить напряжение между личным страданием и нравственными требованиями общества, а роман получает значение глубокого размышления о сложности женской судьбы.*

Ключевые слова *Улугбек Хамдам, роман «Ота», образ Севинч, судьба женщины, художественный образ, психологизм, социально-нравственные ценности, конфликт*

Zamonaviy o'zbek romanchiligida insonning ichki dunyosi, uning shaxsiy tanlovi bilan ijtimoiy muhit tomonidan belgilangan

axloqiy mezonlar o'rtasidagi ziddiyatlarni badiiy tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani

ham inson hayotining murakkab va ziddiyatli qirralarini, xususan, otalik mas'uliyati, farzand taqdiri, oilaviy munosabatlar, insoniy gunoh va kechirim, shaxsiy hamda ijtimoiy mezonlar to'qnashuvini keng falsafiy-estetik ko'lamda yoritishi bilan ajralib turadi. Asarning markazida Po'lat obrazi turgan bo'lsa-da, uning xarakteri va dunyoqarashini to'laqonli anglashda Sevinch obrazi alohida badiiy funksiyaga ega. Zero, Sevinch Po'lat hayotidagi oddiy farzand emas, balki uning uzoq yillik kutishlari, oilaviy baxt haqidagi tasavvurlari, otalik mas'uliyati va oxir-oqibat eng og'ir axloqiy tanlovi bilan bevosita bog'langan obrazdir (Hamdam, 2020).

Romanda Sevinch taqdiri orqali ayolning oiladagi mavqeyi, uning shaxsiy hayoti va tanlovlari ustidan ijtimoiy nazorat, "el nima deydi?" tamoyilining inson ruhiyatiga ta'siri kabi masalalar ham yuzaga chiqadi. Shu sababli Sevinch obrazini faqat fojiaiy taqdir egasi bo'lgan qahramon sifatida o'rganish asarning mazmuniy imkoniyatlarini toraytirgan bo'lur edi. Uning hayot yo'li orqali shaxs va jamiyat, individual istak va ijtimoiy majburiyat, mehr va nazorat, kechirim va jazo kabi qarama-qarshi tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar badiiy jihatdan namoyon bo'ladi.

Ulug'bek Hamdamning ijodiy-estetik qarashlarida insonning ma'naviy mavjudligi, uning e'tiqod va ichki ishonch bilan munosabati muhim o'rin tutadi. Adib "Yangilanish ehtiyoji" asarida insonning nafaqat bu dunyosi, balki oxirat hayoti uchun ham ma'naviy tayanchga ehtiyoj sezishini ta'kidlaydi (Hamdam, 2007; 39). "Ota" romanidagi Po'latning ichki kechinmalarini ham aynan shu ma'naviy izlanishlar bilan bog'lab talqin qilish mumkin. Biroq romanda e'tiqod va axloq masalasi tayyor hukm shaklida emas, insonning amaliy tanlovlari, xatolari va ularning oqibatlari orqali badiiy muammoga aylantiriladi.

Shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy muammolarning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi masalasi adabiy tahlil uchun muhim metodologik asos bo'la oladi. Adabiyotshunos olim I.G'aniev inson qilmishining faqat uning

o'ziga emas, balki uning atrofidagi kishilar va ijtimoiy muhitga ham ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi (G'aniev, 2013). Shu jihatdan Sevinchning fojiaiy taqdirini ham faqat individual xato natijasi sifatida emas, balki oila, jamiyat, axloqiy qarashlar va shaxsiy tanlovlar kesishgan nuqtada yuzaga kelgan murakkab hodisa sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Sevinch obrazining badiiy konsepsiyasi uning dunyoga kelishi bilan bog'liq epizodlardan boshlanib, keyingi fojiaiy taqdirining ma'no ildizlari ham aynan shu dastlabki tasvirlarda shakllantiriladi. Po'latning farzandsizlikdan uzoq vaqt iztirob chekishi, hali tug'ilmagan farzandi bilan xayolan suhbatlashib yurishi uning ongida farzand tushunchasi biologik davomiylikdan ko'ra kengroq – inson hayotining mazmunini tasdiqlovchi mavjudlik omiliga aylanganini ko'rsatadi. Shu sababli Sevinchning tug'ilishi Po'lat oilasidagi oddiy quvonchli voqea emas, balki qahramonning hayotiy kutishlari ro'yobga chiqadigan burilish nuqtasi sifatida talqin qilinadi.

Qizga "Sevinch" deb nom berilishi ham tasodifiy emas. Asar badiiy mantig'ida ismning semantik mazmuni bilan qahramonning keyingi taqdiri o'rtasida kuchli kontrast yuzaga keladi: dastlab Sevinch oilaga quvonch, baxt va avlod davomiyligini olib kirgan qiz sifatida namoyon bo'lsa, keyinchalik uning hayoti aynan shu oilaning eng og'ir ruhiy sinovlariga sabab bo'ladi. Binobarin, "Sevinch" nomi faqat qahramonni individual belgilovchi antroponim emas, balki roman davomida mazmuni o'zgarib boradigan badiiy detal sifatida ham funkcionallashadi.

D. Qur'onovning badiiy obrazning individuallashtirilgan umumlashma sifatida namoyon bo'lishi haqidagi qarashlari shu jihatni anglash uchun nazariy asos beradi: konkret qahramonning individual belgilarini badiiy tizimga olib kirish orqali yozuvchi undan kengroq hayotiy va ijtimoiy mazmunlarni chiqaradi (Qur'onov, 2006; 68–69). Sevinchning ham aynan shunday obraz ekanini uning

taqdiridagi individual xususiyatlar bilan ijtimoiy mazmun o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatadi.

Sevinch hayotidagi yong'in voqeasi romanning syujet-kompozitsion tizimida oddiy favqulodda hodisa vazifasini bajarib qolmay, qahramonning keyingi ruhiy va ijtimoiy taqdirini belgilovchi semantik markazlardan biriga aylanadi. Yong'in motivi qahramon taqdirining ikki bosqichini ajratib turuvchi badiiy chegara vazifasini bajaradi: yong'ingacha bo'lgan Sevinch –oilaviy baxtning timsoli bo'lsa, yong'indan keyingi Sevinch jarohat, chidam va o'z qismatini yashirincha ko'tarib yashashga majbur bo'lgan shaxs sifatida shakllanadi. Mazkur qarama-qarshilik qahramonning xarakter evolyutsiyasini ta'minlab, keyingi voqealarni psixologik jihatdan tayyorlaydi.

D. Quronov inson obrazini yaratishda badiiy psixologizmning alohida ahamiyatini ko'rsatib, qahramon ruhiyatining uning xatti-harakati, nutqi va ichki kechinmalari orqali ochilishini ta'kidlaydi (Quronov, 2006; 73–76). "Ota" romanida Sevinchning ruhiy holati ham bevosita izohdan ko'ra uning xarakteri va xulq-atvori orqali anglashiladi; ayniqsa, u boshdan kechirgan jismoniy jarohatning ruhiy oqibatlari qahramonning keyingi hayotida o'zini tutish tarziga singib ketadi.

Sevinchning otasiga o'xshab barcha iztiroblarini bildirmaslikka o'rganishi uning xarakteridagi ichki qarama-qarshilikni kuchaytiradi: bir tomondan, u otasining himoyasi va mehriga ehtiyoj sezuvchi farzand bo'lsa, ikkinchi tomondan, aynan otasidan o'z dardini yashirish, tashqi bardoshlilikni saqlash odatini o'zlashtiradi. Shunday qilib, ota tomonidan berilgan tarbiya ikki xil natijani yuzaga chiqaradi – u qizni hayotga chidamli qilib tarbiyalaydi, biroq uning ichki kechinmalarini ochiq ifodalash imkoniyatini ham toraytiradi.

Bu o'rinda Ulug'bek Hamdamning "Yangilanish ehtiyoji" asarida ilgari surilgan insonning ichki e'tiqod va ma'naviy tayanchga ehtiyoji haqidagi qarashlari ham muayyan nazariy-ijodiy asos bo'lib xizmat qiladi. Adib

insonning ma'naviy hayotini uning tashqi xatti-harakatlaridan ajratib bo'lmazligini, e'tiqod inson mavjudligining muhim tayanchi ekanini ta'kidlaydi (Hamdam, 2007; 39). "Ota" romanida esa bu masala qahramonlarning hayotiy tanlovlari va ularning ruhiy oqibatlari orqali badiiy shakl kasb etadi.

Sevinch obrazining badiiy mohiyati Po'lat bilan munosabatlaridan tashqarida to'liq namoyon bo'lmaydi, chunki qahramonning deyarli barcha muhim hayotiy bosqichlari ota mehrining, nazoratining yoki hukmining bevosita ta'siri ostida kechadi. Dastlab Po'lat qizining hayotini himoya qiluvchi, uning jismoniy va ruhiy jarohatlarini o'z dardi sifatida qabul qiluvchi ota bo'lsa, keyinchalik ayni shu mehrning mutlaqlashuvi qizning shaxsiy hayoti ustidan hukm chiqarish huquqini o'zida jamlagan otalik pozitsiyasiga aylanadi.

Bu o'zgarish romanning asosiy konfliktini murakkablashtiradi, chunki undagi qarama-qarshilikni faqat ota va qiz o'rtasidagi ziddiyat sifatida baholash biryozlama xulosa bo'ladi. Aslida, Po'lat va Sevinch munosabatlarida ota mehrining himoya qiluvchi kuchdan paternalistik nazoratga aylanishi, shaxsiy tanlovning oilaviy axloq bilan to'qnashuvi hamda individual hayotning jamoaviy mezonlar asosida baholanishi kabi bir necha konflikt qatlamlari kesishadi.

Sevinch obrazining eng muhim ijtimoiy-estetik qatlamlaridan biri ayolning shaxsiy xatosiga jamiyat tomonidan beriladigan baho masalasidir. Roman bu muammoni shunchaki "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" harakatni belgilash doirasida emas, balki insonning birgina qilmishi uning butun shaxsiyatiga chiqariladigan hukmning mezoniga aylanishi mumkinmi, degan murakkab axloqiy savol orqali qo'yadi.

Sevinchning avvalgi hayotini tashkil etgan bolalikdagi jarohat, o'qimishlilik, ota-onaga bo'lgan munosabat, oilaviy baxtga intilish va ichki kechinmalarni yengib yashash tajribasi uning keyingi xatosi oldida go'yo ikkinchi darajali holatga tushib qoladi. Shu jihatdan yozuvchi ayolning xatosini oqlash yoki qoralash bilan cheklanmay, jamiyatning ayolga

nisbatan qo'llaydigan axloqiy mezonlari qanchalik mutlaq bo'lishi mumkinligini muammolashtiradi.

Bu masala "Ota" romanining umumiy falsafiy yo'nalishi bilan ham uzviy bog'liq. Asarda inson qilmishiga beriladigan bahoning turli muhitlarda keskin farq qilishi ko'rsatiladi: ozodlikdagi ijtimoiy muhitda Po'latning qilmishi qoralansa, qamoq muhitida ayrim mahbuslar uni, aksincha, "ota" sifatida ulug'laydi. Birgina qilmishning ikki xil muhitda qarama-qarshi baholanishi asarning axloqiy mezonlarni mutlaq haqiqat sifatida qabul qilishga emas, balki ularning shakllanish mexanizmini tahlil qilishga undaydi. Shu jihatdan Sevinch taqdiri ham "ayolning xatosi" muammosidan kengroq – axloqiy hukmning nisbiyligi va inson hayotining bitta qilmishga qisqartirilishi muammosiga aylanadi.

Qahramonning ismi dastlab "quvonch" semantikasini ifodalasa, uning taqdiri bu mazmunni fojiaiy kontrastga aylantiradi; yong'in esa uning yuzini kuydirish bilan birga oilaviy baxtning dastlabki shaklini ham parchalab yuboradi; ota mehrining cheksizligi esa keyinchalik aynan qizning shaxsiy taqdiri ustidan chiqarilgan hukm orqali o'zining paradoksal tabiatini namoyon etadi. Natijada Sevinch obrazi bir-biri bilan qarama-qarshi semantik qatlamlarni – quvonch va iztirob, himoya va nazorat, mehr va hukm, shaxsiy erkinlik va ijtimoiy majburiyatni o'zida birlashtirgan murakkab badiiy tuzilmaga aylanadi.

Bunday obrazning kuchi shundaki, u o'quvchini tayyor axloqiy xulosaga olib kelmaydi; aksincha, qahramon taqdiri orqali qarama-qarshi savollarni bir vaqtning o'zida o'ylashga majbur qiladi. Badiiy asar strukturasidagi har bir unsur umumiy mazmunni shakllantirishda muayyan funksiyani bajarishi, hatto alohida detal ham butunlik mazmuniga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqidagi nazariy qarashlar (Quronov, 2006; 90) Sevinch obrazini yong'in, tush, qush, uy va ota-qiz munosabatlari bilan yaxlit poetik tizimda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Roman Sevinch taqdiri misolida ayol masalasini faqat oilaviy yoki maishiy muammo sifatida emas, insonning shaxsiy erkinligi va jamiyat tomonidan belgilangan axloqiy chegaralar o'rtasidagi munosabat sifatida qo'yadi. Qahramonning fojiaiy taqdirini yuzaga keltirgan omillarni birgina uning xatosiga bog'lash mumkin emas, chunki bu xato ortida uning butun hayoti, oilaviy tarbiyasi, otasining mutlaq mehridan kelib chiqqan nazorat, jamiyatning "odamlar nima deydi?" tamoyiliga asoslangan baholash mexanizmi va erkak hamda ayol qilmishlariga nisbatan turlicha qo'llanadigan ijtimoiy mezonlar mavjud.

Shu sababli Sevinch obrazining fojiaiyiligi uning "xato qilgani" bilangina emas, insoniy mavjudlikning murakkabligini bitta axloqiy hukm doirasiga sig'dirishga urinish bilan belgilanadi. Po'latning o'z qilmishini ijtimoiy tartibni saqlash, boshqalarga ibrat bo'lish va kelajakdagi xatolarning oldini olish zarurati bilan oqlashi ham ayni paradoksni kuchaytiradi: axloqiy me'yorni himoya qilish maqsadi inson hayotining daxlsizligi bilan to'qnashganda, qaysi qadriyat ustuvor bo'lishi kerak?

Asarning kuchi ham ana shu savolga biryozlama javob bermasligidadir. Sevinchning o'limi o'quvchini uning qilmishini unutishga yoki oqlashga undamaydi; aksincha, jazolashning chegarasi, ota hokimiyatining chegarasi, axloqiy hukmning chegarasi va insoniy kechirimning imkoniyatlari haqida mushohada yuritishga majbur qiladi. Natijada ayol taqdiri masalasi individual fojiadan chiqib, insonning axloqiy tanlovi va jamiyatning hukm chiqarish huquqi haqidagi umumiy falsafiy muammoga ulanadi.

Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi Sevinch obrazi badiiy jihatdan bir qatlamli, faqat fojiaiy taqdir egasi bo'lgan personaj emas, balki oilaviy baxt, jismoniy va ruhiy jarohat, shaxsiy tanlov, otalik mehrining mutlaqlashuvi, ijtimoiy hukm va insoniy kechirim kabi mazmuniy qatlamlarni o'zida birlashtiruvchi murakkab xarakter sifatida

shakllangan. Qahramonning dunyoga kelishi bilan bog'liq "Sevinch" nomining quvonch semantikasi keyinchalik uning fojiaiy taqdiri bilan kontrastga kirishar ekan, mazkur nom obrazning individual belgisidan asarning umumiy poetik konsepsiyasini ifodalovchi badiiy detal darajasiga ko'tariladi.

Sevinchning bolalikdagi yong'in tufayli yuzidan jarohatlanishi uning keyingi xarakteri va ruhiy olamining shakllanishida muhim burilish yasab, jismoniy jarohatni ruhiy tajribaga, ruhiy tajribani esa xarakter xususiyatiga aylantiradi. Uning otasidan iztiroblarini yashirish va bardoshli bo'lishni o'rganishi keyinchalik qahramonning ichki dunyosini yanada murakkablashtiradi; shu jihatdan roman psixologizmi tashqi voqealarni qayd etishdan ko'ra, ularning inson ongida qoldirgan izlarini kuzatishga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi.

Sevinch va Po'lat o'rtasidagi munosabat esa asarning markaziy konfliktini yuzaga chiqarib, ota mehrining himoya qiluvchi kuchdan hukm chiqaruvchi kuchga aylanish jarayonini namoyon etadi. Po'latning fojiaiyiligi

uning qizini sevmasligida emas, aksincha, otalik mas'uliyati va axloqiy qarashlarini mutlaqlashtirib, farzandining shaxsiy hayoti ustidan hukm chiqarish huquqini o'zida jamlab qo'yishida namoyon bo'ladi. Shu sababli Sevinchning taqdiri Po'lat obrazining ham ichki mohiyatini ochuvchi asosiy vositalardan biriga aylanadi.

Shunday qilib, Sevinch obrazi "Ota" romanida ayol taqdirining oddiy tasviri emas, balki insonning shaxsiy erkinligi bilan ijtimoiy-axloqiy majburiyatlar o'rtasidagi ziddiyatni badiiy jihatdan mujassamlashtiruvchi murakkab obraz sifatida namoyon bo'ladi. Uning fojiaiy qismati orqali yozuvchi ayol xatosini oqlash yoki qoralashdan ko'ra murakkabroq masalani — insonni birgina qilmishi bilan baholash, axloqiy me'yorni mutlaqlashtirish va "to'g'ri" deb qabul qilingan hukmning insoniy oqibatlarini ochib beradi. Shu jihatdan Sevinchning individual taqdiri romanning ijtimoiy-falsafiy mazmunini kengaytirib, ayolning jamiyat, oila va shaxs sifatidagi mavqeyi haqidagi mushohadani umumiy insoniy muammo darajasiga ko'taradi.

References:

1. Hamdam, U. (2007). *Yangilanish ehtiyoji*. O'zbekiston Respublikasi FA "Fan".
2. Hamdam, U. (2020). *Ota*. Yangi asr avlodi.
3. Quronov, D. (2006). *Adabiyotshunoslikka kirish*.
4. G'aniev, I. (2013). *Chingiz Aytmatov va XXI asr*. Akademnashr.